

HINDISTON VA POKISTON O'RTASIDAGI ZAMONAVIY SIYOSIY MUNOSABATLAR: TARIXIY ILDIZLAR, XAVFSIZLIK MUAMMOLARI VA TINCHLIK ISTIQBOLLARI

Ibroximov Asadbek Murodjon o'g'li

*Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti, Xalqaro
Munosabatlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Hindiston va Pokiston o'rtasidagi siyosiy, harbiy va diplomatik munosabatlarning so'nggi yillardagi dinamikasini tahlil qiladi. Tarixiy ziddiyatlar, xususan, Kashmir mojarosi, mintaqaviy xavfsizlik va global barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning roli, savdo aloqalari, va transchegaraviy terrorizm omillari ham ko'rib chiqiladi. Maqola tinchlik istiqbollari aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mintaqada tinchlikka erishish yo'lidagi real imkoniyatlar va mavjud to'siqlar tahlil qilinadi. Ushbu maqola o'quvchini Janubiy Osiyodagi eng dolzarb va xavfli siyosiy qarama-qarshiliklardan biri bilan chuqurroq tanishtiradi hamda tinchlik sari ehtiyotkorlik bilan tashlanayotgan qadamlarga nazar tashlaydi.*

Аннотация: *Данная статья анализирует динамику политических, военных и дипломатических отношений между Индией и Пакистаном в последние годы. Исторические противоречия, в частности конфликт в Кашмире, представляют серьезную угрозу региональной безопасности и глобальной стабильности. Также рассматриваются такие факторы, как роль международных организаций, торговые отношения и трансграничный терроризм. Статья направлена на выявление перспектив мира, а также анализирует реальные возможности и существующие препятствия на пути к установлению мира в регионе. Эта работа более глубоко знакомит читателя с одним из самых актуальных и опасных политических противостояний в Южной Азии и рассматривает осторожные шаги, предпринимаемые в сторону мира.*

Annotation: *This article analyzes the recent dynamics of political, military, and diplomatic relations between India and Pakistan. Historical disputes, particularly the Kashmir conflict, pose a serious threat to regional security and global stability. The article also examines the role of international organizations, trade relations, and factors related to cross border terrorism. It aims to identify prospects for peace and analyzes the real opportunities and existing obstacles to achieving peace in the region. This article offers readers a deeper insight into one of the most pressing and dangerous political rivalries in South Asia and takes a closer look at the cautious steps being taken toward peace.*

Kalit so'zlar: *Hindiston, Pokiston, Kashmir mojarosi, transchegaraviy terrorizm, tinchlik muzokaralari, yadro xavfsizligi, diplomatik aloqalar.*

Keywords: *India, Pakistan, Kashmir conflict, cross-border terrorism, peace talks, nuclear security, diplomatic relations*

KIRISH

Ushbu maqola Hindiston va Pokiston o'rtasidagi tarixiy va zamonaviy ziddiyatlarning tub sabablarini o'rganadi. Savol shundaki: bu ikki davlat haqiqiy tinchlik sari harakat qilmoqdam yoki keskinliklar yangi bosqichga ko'tarilmoqda? Bilamizki, Hindiston va Pokiston — Janubiy Osiyoning ikki asosiy davlati bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar mintaqaviy barqarorlik va global xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. 1947-yilda Britaniya mustamlakasidan ozod bo'lib, mustaqil davlat sifatida shakllangan bu ikki qo'shni o'rtasidagi ilk kunlardanoq ziddiyatlar, ayniqsa Kashmir hududi bo'yicha da'volar boshlanib ketgan. Shundan beri ular o'rtasida bir necha marta urushlar, chegaradagi harbiy to'qnashuvlar va diplomatik uzilishlar sodir bo'ldi. Ayniqsa, yadro quroliga ega bo'lgan ikki davlat o'rtasidagi har qanday keskinlik nafaqat mintaqaviy, balki global xavotir uyg'otadi. So'nggi yillarda Hindiston va Pokiston munosabatlari yana bir bor murakkab sinovlarga duch keldi. 2016-yildagi Uri hujumi, 2019-yil Pulvama portlashi va shundan keyin Balakotda amalga oshirilgan aviatsion zarbalar ikki davlat o'rtasida keskin diplomatik tanglikka olib keldi. Shu bilan birga, savdo va madaniy hamkorlik bo'yicha ba'zi harakatlar, xalqaro vositachilarning ishtiroki bilan o'tkazilgan muzokaralar, tinchlik sari ehtiyotkor qadamlardan darak beradi. Mazkur mavzuda Hindiston va Pokiston o'rtasidagi so'nggi yillardagi siyosiy, harbiy va diplomatik munosabatlar ilgari suruladi. Tarixiy ildizlar, mavjud ziddiyatlar va ularni yumshatish bo'yicha olib borilgan harakatlar, shuningdek, tinchlik istiqbollari, mavjud to'siqlar va xalqaro hamjamiyatning bu boradagi rolini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ikki davlat o'rtasidagi bugungi real vaziyatiga chuqur nazar tashlab, kelgusida barqaror tinchlikka erishish imkoniyatlarini ham tahlil qiladi. "Peace is not merely the absence of war, but the presence of justice." Martin Luther King Jr. Asosiy qism: Hindiston va Pokiston o'rtasidagi bugungi keskin munosabatlarning ildizlari tarixga, xususan 1947-yilgi Hindistonning mustaqillikka chiqishi va Britaniya imperiyasi parchalanganiga borib taqaladi. Shu yili ikki davlat — asosan hindular yashaydigan Hindiston va asosan musulmonlar yashaydigan Pokiston tashkil topdi. Bu bo'linish "Partition" deb nomlanib, millionlab odamlarning migratsiyasi, etnik to'qnashuvlar va o'n minglab insonlarning halok bo'lishiga sabab bo'ldi. Bo'linish jarayonida eng katta bahsli hududlardan biri bu — Jammu va Kashmir edi. Bu hudud musulmonlar ko'pchilikni tashkil qiladigan, ammo hind knyazi boshqaruvida bo'lgan noaniq statusdagi hudud bo'lib, har ikki davlat unga da'vo qildi. Natijada 1947–1948 yillarda birinchi Hindiston–Pokiston urushi sodir bo'ldi. Bu urush BMT vositachiligida to'xtatildi va hudud de-fakto ikkiga bo'linib qoldi: biri Hindiston nazorati ostida (Jammu & Kashmir), boshqasi Pokiston nazorati ostida (Azad Kashmir). Shundan keyin yana ikki marta urush bo'ldi: 1. 1965-yilgi urush — Kashmir sababli yuzaga kelgan ikkinchi yirik urush bo'lib, harbiy jihatdan natijasiz tugagan. 2. 1971-yilgi urush — bu safar mojaroga Bangladesh (sobiq Sharqiy Pokiston) sabab bo'ldi. Bu urush Pokiston uchun yirik siyosiy va hududiy yo'qotishlar bilan yakunlandi. Shu o'rinda Hind faylasufi va Nobel sovrindori Amartya Sen shunday ta'kidlaydi: "The most dangerous kind of conflict is one which is rooted in history and

identity." Ya'ni, eng xavfli mojarolar — bu tarix va shaxsiylik (milliy, diniy yoki etnik o'zlik) bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mojarolardir. Hindiston va Pokiston o'rtasidagi ziddiyat aynan shunday tabiatga ega: bu nafaqat hududiy, balki diniy, madaniy va tarixiy o'zlik bilan bog'liq bo'lgan yirik muammo bo'lib qolmoqda. Ayniqsa Kashmir mojarosi, ikki davlatning milliy qarashlari va tarixiy da'volari bilan o'zaro bog'liq bo'lib, bu hududdagi nizolarni faqat siyosiy muzokaralar bilan emas, balki tarixiy adolat va xalq irodasiga asoslangan yondashuvlar bilan hal qilishni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, 1999-yilda Kargil mojarosi yuz berdi — Pokiston harbiy kuchlari va qo'zg'olonchilari Hindistonning tog'li hududiga kirib bordi, ammo Hindiston kuchlari ularni chekinishga majbur qildi. Shunday qilib, tarixiy mojarolar Hindiston va Pokiston o'rtasidagi ishonchning mutlaqo past bo'lishiga, har bir harbiy yoki diplomatik harakatga xavfli tarzda munosabat bildirishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, har ikki davlatning yadro qurollariga ega bo'lishi (1998-yilda sinovlar o'tkazilgan) munosabatlarning har qanday keskinlashuvi global darajada xavotir uyg'otishiga olib kelmoqda. So'nggi yillarda Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar bir necha bor keskinlashdi. Ayniqsa 2016 va 2019-yillardagi voqealar diplomatik aloqalarni muvozanatdan chiqarib yubordi.

- 2016-yil — Uri hujumi va "jarrohlik zarbalari" 2016-yil sentabr oyida Hindistonning Jammu va Kashmir shtatidagi Uri shahridagi harbiy bazasiga uyushtirilgan terakt natijasida 19 nafar hind askari halok bo'ldi. Hindiston bu hujumda Pokistondagi terrorchilarni aybladi. Javoban, Hindiston armiyasi Pokiston nazorati ostidagi Kashmir hududida "surgical strikes" (aniq harbiy zarbalar) o'tkazdi. Bu harakat ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatni yanada kuchaytirdi.
- 2019-yil — Pulvama hujumi va Balakot zarbasi 2019-yil fevral oyida Hindistonda joylashgan Pulvama shahrida hind harbiy kolonnasiga qarshi sodir etilgan portlash natijasida 40 nafar xavfsizlik xodimi halok bo'ldi. Javoban, Hindiston aviatsiyasi Pokistonning Balakot shahrida joylashgan terrorchilik lageriga zarba berdi. Bu — 1971 yildan beri Hindiston harbiy kuchlarining Pokiston ichkarisiga kirib amalga oshirgan ilk harbiy harakati bo'ldi. Ushbu voqealar ikki tomon o'rtasidagi diplomatik aloqalarning vaqtincha to'xtatilishiga olib keldi. Har ikki tomon elchilarini chaqirib oldi, savdo munosabatlari to'xtadi, madaniy almashinuvlar bekor qilindi. Bundan tashqari 2019 yil 5 avgustda Hindiston davlati o'z konstitutsiyasining 370 moddasini bekor qilishi, Pokiston-Hindiston munosabatlarini yangi bosqichini boshlab berdi. Shu o'rinda savol tug'ulishi mumkin: Hindistonning bu qarori qanchalik o'zini oqladi? va Hindistonning bu qarorni qabul qilishi qanchalik to'g'ri edi? Pokiston hukumati tomonidan bu qaror qanchalik yaxshi kutib olindi...? Yoki Pokiston hukumati Hindistonning bu qaroriga qanday pozitsiya bildirdi..? Hindiston hukumati Jammu va Kashmir shtatiga alohida maqom beruvchi 370-moddani bekor qildi va hududni ikki qismga ajratib, bevosita markaziy hukumatga bo'ysundirildi. Bu qaror Pokiston tomonidan keskin norozilik bilan kutib olindi. Pokiston Hindistonni xalqaro qonunlarni buzganlikda ayblab, bu harakatni "bosqin" deb atadi. BMT va Islom Hamkorlik Tashkilotiga murojaatlar qilindi, biroq xalqaro hamjamiyat bu masalaga aralashmaslikni afzal ko'rdi. Pokiston hukumati ham o'z navbatida Hindiston bilan diplomatik aloqalarni qisqartirdi. Bunga javoban esa Hindiston bu ichki masala ekanligini ta'kidlab, Jammu va

Kashmirning integratsiyasini mustahkamlashni asosiy maqsad sifatida ko'rsatdi. Hindiston hukumati nazarida 370-moddaning bekor qilinishi orqali mintaqada yagona qonuniy tartib o'rnatiladi, iqtisodiy taraqqiyot tezlashadi va hududda xavfsizlik kuchayadi. Ammo, ayrim manbalarga ko'ra, Jammu va Kashmirda infratuzilma rivoji va investitsiyalar hajmi oshgan bo'lsa-da, siyosiy beqarorlik, internet cheklovlari, va inson huquqlari bo'yicha tanqidlar hanuz davom etmoqda. Shunday qilib, Hindistonning bu qarori qisqa muddatda ayrim ijobiy natijalarni bergandek tuyulsa-da, uzoq muddatli istiqbolda u mintaqaviy barqarorlikka xizmat qiladimi — bu savol hanuz ochiq qolmoqda. Pokiston bilan ziddiyatning kuchaygani, xalqaro tanqidlar va ichki noroziliklar bu qarorning bahsli jihatlarini ochib bermoqda. Bugungi kunda Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar "tinchlik va kelishmovchilik oralig'ida" muvozanatda turibdi. Har ikki tomon o'zining harbiy salohiyati va siyosiy mavqeini saqlab qolishga harakat qilmoqda. Diplomatik muloqotlar qisman tiklangan bo'lsa-da, bu jarayon beqaror va o'zaro ishonchsizlik ostida kechmoqda. 2024 yil holatiga ko'ra, har ikkala davlat ham harbiy jihatdan kuchli va o'zining yetuk darajasida desak adashmagan bo'lamiz. Pokiston o'z chegaralarini dronlar va sun'iy yo'ldoshlar orqali kuzatmoqda, Hindiston esa Kashmir mintaqasida xavfsizlik kuchlarini kuchaytirgan. Bu holat kichik harbiy to'qnashuvlarning katta mojaroga aylanish xavfini oshiradi. Bundan tashqar, yadro quroliga ega bo'lgan ikki davlat o'rtasidagi har qanday ziddiyat xalqaro hamjamiyat uchun ham katta tahdid hisoblanadi. Xalqaro ekspertlar bir ovozdan shuni tan oladilarki, agar mintaqada mojarolar nazoratdan chiqsa, bu nafaqat Janubiy Osiyo, balki butun dunyo xavfsizligi uchun halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgi kunda Pokiston va Hindiston o'rtasidagi xavotirlardan yana biri bu — transchegaraviy terrorizmdir. Hindiston rasmiylari Pokistonni o'z hududidan faoliyat yuritayotgan terrorchi guruhlariga boshpana berishda va ularni bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlashda ayblab kelmoqda. Ayniqsa, 2008 yilda Mumbai shahrida sodir etilgan terrorchilik hujumi va 2019 yil Pulvama hujumi bu ayblovlarni yanada keskinlashtirdi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, Pulvama tumanida politsiyachilarni olib ketayotgan avtobusga hujumni Kashmirdagi terroristik tashkilot "Jaish Muhammad" o'z zimmasiga oldi. Hindiston politsiyasining 45 xodimining o'limi, yana bir bor Janubiy Osiyoda urush bo'yoqlarning kuchayishiga olib keldi. Ammo shunga qaramay, Pokiston hukumati esa bu kabi ayblovlarni rad etib, o'zi ham terrorizm qurboni ekanini ta'kidlaydi. Ular xalqaro hamjamiyat oldida Hindistonni Kashmirdagi inson huquqlari buzilishida ayblab chiqadi va ikki tomonlama muammolarga muloqot orqali yechim topishni taklif qiladi. Biroq, terrorchilik harakatlarining siyosiy va harbiy keskinlikni kuchaytirayotgani mintaqada tinchlik o'rnatishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Transchegaraviy terrorizm muammosi shunchaki ikki davlatning ichki masalasi bo'lib qolmay, butun Janubiy Osiyo mintaqasi xavfsizligiga tahdid solmoqda. Shu bois, bu muammo xalqaro darajada ko'rib chiqilishi, terrorchi guruhlariga nisbatan qat'iy choralar ko'rilishi, hamda Hindiston va Pokiston o'rtasida ishonchga asoslangan muloqot yo'lga qo'yilishi zarurdir. Ma'limot o'rnida ta'kidlash kerakki, agar har ikki davlat o'rtasida bu masalada samarali muzokaralar yo'lga qo'yilmas ekan, mojarolar davom etishi va harbiy qarama-qarshilik ehtimoli saqlanib

qolaveradi. Tinchlikka erishish uchun esa nafaqat ikki davlat, balki xalqaro hamjamiyatning ham faol ishtiroki zarur bo'lmoqda. Shu o'rinda bu ikki davlat o'rtasidagi tranchegaraviy terrorizm muommosi bo'yicha, so'ngi yillarda yuzaga kelgan asosiy statistik ma'lumotlar:

1. Pulvama hujumi (2019 yil, 14 fevral): Jammu va Kashmirning Pulvama tumanida amalga oshirilgan o'zini o'zi portlatgan hujumda 40 nafar Hindiston xavfsizlik xodimi halok bo'ldi. Hujumni Pokistonda joylashgan Jaish-e-Mohammed guruhi o'z zimmasiga oldi.
2. Ceasefire (otishmalarni to'xtatish) buzilishlari: 2020 yilda Hindiston-Pokiston chegarasida 5,133 ta otishma holati qayd etildi, bu 2019 yilga nisbatan 48% ga ko'p.
3. Terrorchilik hujumlari: 2020 yilda Jammu va Kashmirda jami 244 ta terrorchilik hujumi sodir bo'ldi, bu 2019 yildagi 592 ta hujumga nisbatan sezilarli darajada kamaygan.
4. Terrorchilarni yo'q qilish: 2020 yilda Hindiston xavfsizlik kuchlari 221 nafar terrorchini yo'q qildi, bu 2019 yildagi 157 ga nisbatan 41% ga ko'p.
5. Terrorchilarni yo'q qilish: 2021 va 2022 yillarda jami 193 nafar terrorchi yo'q qilindi. 2022 yilda bu raqamda 56 nafar pokistonlik jangari mavjudligi qayd etildi.
6. Chegaradan o'tish holatlari: 2021 yilda 77 ta, 2020 yilda esa 99 ta chegaradan o'tish holati qayd etildi.
7. Pokiston-Taliban (TTP): BMTning 2020 yilgi hisobotiga ko'ra, Pokiston-Taliban guruhi (TTP) 2020 yilning iyul-oktyabr oylarida 100 dan ortiq transchegaraviy hujumlarni amalga oshirdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi kunda xalqaro maydonda iqtisodiy salohiyat va texnologik taraqqiyot davlatlararo diplomatik ustunlikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanmoqda. Hindistonning texnologik startaplar, IT sektori va mudofaa sanoatidagi o'sishi uni Yevropa Ittifoqi, AQSh va Yaponiya uchun nafaqat bozor, balki strategik sherik sifatida qadrlashga olib keldi. Ayniqsa, AQSh-Hindiston o'rtasidagi «Quad» hamkorligi va «Indo-Pacific» strategiyasi orqali bu aloqalar yangi bosqichga chiqmoqda. Pokiston esa diplomatik maydonda nisbatan noaniq vaziyatga tushib qolgan bo'lsa-da, Xitoy bilan iqtisodiy va harbiy hamkorlikni kuchaytirish orqali o'z manfaatlarini himoya qilishga intilmoqda. Xususan, Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori (CPEC) bu yo'nalishdagi eng yirik loyihalardan biridir. Bundan tashqari, Turkiya, Saudiya Arabistoni va ayrim islomiy davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash orqali Pokiston geosiyosiy muvozanatni saqlab qolishga harakat qilmoqda. Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik, Xitoy-Hindiston chegarasidagi qarama-qarshiliklar, hamda Rossiyaning Ukraina urushidan keyingi xalqaro maydondagi pozitsiyasi Hindiston-Pokiston ziddiyatlariga bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu omillar mintaqadagi har bir siyosiy harakatning xalqaro rezonansga ega bo'lishiga olib kelmoqda. Xulosa: Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar tarixan murakkab va ziddiyatlarga boy bo'lib, so'nggi yillarda ham o'zgaruvchanlikni davom ettirmoqda. Kashmir mintaqasidagi da'volar, terrorizm, va harbiy keskinliklar bu ikki davlat o'rtasidagi ishonchning shakllanishiga to'siq bo'lib kelmoqda. Shuningdek, yadro qurollariga ega bo'lgan davlatlar sifatida, har qanday ziddiyat mintaqaviy va global xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Biroq, so'nggi yillarda mintaqaviy barqarorlikni saqlashga intilishlar ham ko'rila boshladi. Xalqaro vositachilik, iqtisodiy manfaatlar va mintaqaviy xavfsizlikni saqlash zarurati Hindiston va Pokistonni diplomatik muloqotlar va tinchlik yo'lidagi ehtiyotkorlik bilan qadam tashlashga majbur qilmoqda. 2016 yildagi Uri hujumi va 2019-yilgi Pulvama portlashidan keyin, har ikki

davlat o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashdi, ammo ba'zi diplomatik urinishlar, savdo aloqalarining tiklanishi, va xalqaro mediatorlarning roli bu jarayonni yumshatishga yordam bermoqda. Pokiston va Hindiston o'rtasidagi transchegaraviy terrorizm masalasi ham bugungi kunda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Hindistonning Pokistonni terrorchi guruhlariga boshpana berishda ayblashi va Pokistonning bu ayblovlarni rad etishi, davlatlar o'rtasidagi ishonchni yanada kamaytirmoqda. Bu holat, albatta, mintaqaviy tinchlikka jiddiy to'siq bo'lib, xalqaro hamjamiyatning faol ishtirokini talab qiladi. Xulosa qilib aytganda, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar tinchlikka erishish sari ehtiyotkor qadamlar bilan rivojlanayotgan bo'lsa-da, mavjud ziddiyatlar, harbiy keskinliklar va terrorizm masalalari bu yo'ldagi asosiy to'siqlarni tashkil etadi. Agar ikki davlat o'rtasida samarali diplomatik muloqot o'rnatilsa, mintaqaviy barqarorlikni saqlash va tinchlikni o'rnatish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, xalqaro hamjamiyatning tinchlikni qo'llab-quvvatlashdagi roli ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. "If you want to make peace with your enemy, you have to work with your enemy. Then he becomes your partner." Nelson Mandela.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmed, S. (2014). The Kashmir Dispute: A Historical Overview. *Journal of South Asian Studies*, 35(2), 215-230.
2. Chaudhary, V. (2018). The India-Pakistan Conflict: A Study of Kashmir and its Global Implications. *International Relations Review*, 25(1), 12-28.
3. Ganguly, S. (2016). The Kashmir Conflict and its Implications for South Asia. *Asian Politics & Policy*, 8(4), 547-563.
4. India-Pakistan Relations: History and Prospects (2019). *International Security Analysis*. Retrieved from <https://www.globalsecurity.org>.
5. Khan, M. (2020). Geopolitics of Terrorism in South Asia: India, Pakistan, and Afghanistan. *South Asian Journal of International Affairs*, 6(1), 98-114.
6. Kux, D. (2001). *India and Pakistan: The Ancient Rivalry*. Washington DC: The Brookings Institution Press.
7. Musharraf, P. (2006). *In the Line of Fire: A Memoir*. New York: Free Press.
8. Rizvi, H. A. (2018). Terrorism and Transnational Security Challenges: India, Pakistan, and the Region. *Journal of Terrorism Research*, 9(3), 56-70.
9. Siddiq, A. (2017). Pakistan's Military Economy: From 1970 to the Present. *Asian Security*, 13(2), 139-156.
10. Sharma, P. (2020). India-Pakistan Relations in the Age of Terrorism: A Political and Security Analysis. *South Asian Studies Quarterly*, 32(3), 210-222.
11. The Role of China in India-Pakistan Relations (2022). *Global Policy Forum*. Retrieved from <https://www.globalpolicy.org>.
12. U.S. Department of State (2020). *Country Reports on Terrorism 2019: Pakistan*. Washington, DC: U.S. Government Printing Office.

13. Vohra, R. (2019). The Kashmir Crisis and its Impact on India-Pakistan Relations. *South Asia Journal of Political Studies*, 24(2), 124-138.
14. Ziring, L. (2005). *Pakistan: At the Crosscurrent of History*. Oxford University Press.
15. UN Security Council Resolutions on Kashmir (2020). UN Documents. Retrieved from <https://www.un.org>.